



---

**SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA MAHALLALARDA XOTIN-QIZLAR  
MA'NAVY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM IJTIMOY  
AHAMIYATI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11063521>

**Berdiyeva Shaira Axmadjonovna**

*JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

**ANNOTASIYA**

Mazkur maqolada mahallalarda xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ma'naviy faolligini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada, xotin-qizlarni ma'naviy faolligini takomillashtirish muammolari respublikada amalga oshirilayotgan yangicha islohotlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti va kelgusi avlod tarbiyasi bilan uzviy bog'liq ekanligi amaliy tajribalar orqali tahlil qilib berilgan.

**Tayanch so'zlar**

ayol, davlat, jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy faoliyat, xalq tarbiyachisi, komil inson, madaniyat, qadriyat, ong, tafakkur, madaniy daraja, maqto'v, izzat.

**АННОТАЦИИ**

В данной статье с научно-теоретической точки зрения объясняются особенности совершенствования духовной активности женщин в государстве и обществе в микрорайонах на основе синергетического подхода. Также в статье на практическом опыте анализируется, что проблемы совершенствования духовной активности женщин как составной части реализуемых в республике новых реформ неразрывно связаны с развитием общества и воспитанием подрастающего поколения.

**Ключевые слова**

женщина, государство, общество, общественное развитие, духовная деятельность, воспитательница нации, совершенный человек, культура, ценность, сознание, мышление, культурный уровень, похвала, честь.

**ANNOTATIONS**

In this article, from a scientific and theoretical point of view, the features of improving the spiritual activity of women in the state and society in microdistricts are explained on the basis of a synergistic approach. The article also analyzes on practical experience that the problems of improving the spiritual activity of women as an integral part of the new reforms being implemented in the republic are



---

inextricably linked with the development of society and the upbringing of the younger generation.

**Key words**

woman, state, society, social development, spiritual activity, educator of the nation, perfect person, culture, value, consciousness, thinking, cultural level, praise, honor.

XXI asrda jahonda gumanizm, inson qadr-qimmatini, sha'ni, hayoti, or-nomusi, daxlsizligi haqidagi g'oyalar eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarilmoqda. Sinergetika ta'limoti XX asrning so'nggi choragida vujudga kelgan bo'lsada, sinergetik jarayonlar azaldan mavjuddir va bunday jarayonlarga xos qonuniyatlarni insoniyat qadimdan tahlil etib keladi. Sinergetika ta'limoti vujudga kelishi natijasida olamning postnokklassik manzarasi shakllandi. Bu olamga yangicha metodologik nuqtai nazardan yondashuvdir. Olimlar, tadqiqotchilar borliq, jamiyat, inson to'g'risida yangicha fikr yurita boshlashdi. Chunki bugungi kunda globallashuv, taraqqiyot jadal sur'atlar bilan kechayotgan bir davrda yangicha tafakkur tarziga ega bo'lish, har bir tadqiqot ob'ektini har tomonlama eng yangi metodlar orqali o'rganish davr talabidir.

Sinergetika - greksha "senergos" so'zidan olingan bo'lib, "hamdo'stlik", "hamkorlik" kabi tuchunchalarning ilmiy tildagi ifodasidir. Sinergetik metod - ijodkorlik faoliyatini stimullashtirish uchun alohida sharoit, muhit yaratib, kutilmaganda yangi analoglarning va assotsiatsiyaning tug'ilishi yoki yaratilishiga sharoit yaratadi. Sinergetika so'zi turli elementlarni, ko'rsatgichlarni, parametrlarni ma'lum qonuniyat asosida birlashtiruvchi ma'nosini anglatadi.

Aytish o'rinliki, ma'naviyat va ma'rifat tuchunchalari keng qamrovli bo'lib, kishining aqlu zakovati ruhiy dunyosini, olam haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlarini, tasavvurlarini, bir-birlariga, oilaga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. SHu nuqtai nazardan sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini rivojlantirish insonparvarlik, halollik; tashabbuskorlik; vatanparvarlik; mehnatsevarlik; faollik; ijodkorlik; saxiylik; ma'suliyatlilik; kamtarlik; poklik kabi fazilatlarini tarbiyalash, ularning aqliy mehnati natijalarini va o'zlikni anglashlarigi xizmat qiladi. Aqlu zakovat, his-tuyg'u, ruhiy salohiyat uyg'unligi axloqiy tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Ma'naviyatning bunyodkorlik, o'zgartiruvchilik, boshqaruvchilik, ixtirochilik, yo'naltiruvchilik kabi xususiyatlari xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, intellektual rivojlanishining muhim sharti, kafolatidir deya ayta olamiz.

Bir qator pedagogik adabiyotlar tahlili va pedagogik lug'atlarda "ma'naviyat", "ma'rifat" tuchunchalar qo'llaniladi. "Ma'naviyat" tuchunchasining ilmiy, falsafiy,



adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Fikrimizcha, bu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir - biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan ularning qaysi muallifning o'ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o'rinlidir.

O'zbek tilining izohli lug'atida[137] ma'naviyat axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar sifatida talqin etilib, insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy tasavvurlari va tuchunchalar majmuidir deyilgan. SHuningdek, mazkur lug'atda ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir, u yo'q joyda hech qashon baxt saodat bo'lmaydi deya izoh berilgan. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy -ma'rifiy faolligini takomillashtirish masalasiga e'tiborni kuchaytirish, mafkuraviy immunitetini boyitish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Falsafa: qomusiy lug'atida[112] ma'naviyat-insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, inson ma'naviyatini o'ziga shaxs sifatida anglagandan boshlab, umrining oxirigasha shakllantiradi va rivojlantirib boradi degan asosli fikrga tayanilgan.

Haqiqatdan ham insonning o'z ma'naviyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji cheksizdir. Ma'naviyat insonning ruhiyati, o'z - o'zini anglashi, did, farosati, adolatni razillikdan, yaxshilikdan, yomonlikni go'zallikni xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati, aql zakovati ularni amalga oshirish yo'lida ongli faoliyat ko'rsatishi va intilishi. [ ; ]

"Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtli bo'ladi", degan ezgu g'oyani hayotimizning kundalik qoidasiga aylantirish<sup>2</sup> uchun mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy - ma'rifiy faolligini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ'ib etish orqali oilalardagi sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda ma'naviy ishlab chiqarish xotin-qizlar ma'naviy faolligini takomillashtirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Xo'sh "ma'naviy ishlab chiqarish" nima?- degan haqli savol tug'iladi. Adabiyotlar tahlili va ilmiy izlanishlarimizga asoslanib "ma'naviy ishlab chiqarish" inson faoliyatini ikki yo'nalishida namoyon bo'ladi, ya'ni moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarish degan xulosaga keldik.

Ma'naviy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat ya'ni ma'naviy faoliyat ikki xil ko'rinishga ega: ma'naviy boyliklar yaratish (ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish) va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, iste'mol qilish. Bilamizki, ma'naviy

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/news/mustahkam-oila-faol-xotin-qizlar-jamiyat-farovonligini-belgilaydi>



ishlab chiqarish jarayonida ma'naviy qadriyatlar yaratiladi va rivojlantiriladi. Ma'naviy ishlab chiqarishning muhim belgilaridan biri uning borliqni nazariy, ratsional bilishga va ayni paytda yangi ma'naviy qadriyatlar ishlab chiqarishga qaratilganligidadir. Bu jarayonda inson bir tomondan o'z ongini o'stiradi, rivojlantiradi, boyitadi. Ikkinshi tomondan esa, odamlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi g'oyalar, bilimlar, nazariyalar, badiiy obrazlar va boshqa ma'naviy qadriyatlar ishlab chiqaradi. Ma'naviy ishlab chiqarish, avvalo xalq ijodiga asoslanadi. Ilmiy, badiiy, axloqiy va boshqa qadriyatlarning asosida xalq ijodiyoti yotadi. [ ]

Demak, sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish muammolarni hal qilishga qaratilgan zamonaviy ta'lim paradigmalari ya'ni:

-qadriyatli (aksiologik) yondashuv ma'naviy ishlab chiqarish inson hayotining mazmuni sifatida;

- faoliyatli yondashuv asosan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida;

- shaxsiy yondashuv - ma'naviy ishlab chiqarish muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 yanvardagi 2-sonli "Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimsha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/ru/doss>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 fevraldagi 23-son «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, Qarori [www// lex. Uz.](http://www.lex.uz)

3. Begmatov A. Globallashuv, milliy ma'naviyat va axborot tizimlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006.

4. Bekmurodov M., Bo'ronov M. Ijtimoiy o'zgarishlar va shukronalik tuyg'usi. - T.: Ma'naviyat, 2015. - 30 b.

5. Бердиерова Ш.А. Махаллаларда хотин -кизлар маънавий -маърифий фаоллигини такомиллаштириш ижтимоий -педагогик муаммо сифатида. Гулистон Давлат Университети ахборотномаси. 23-27 б 2023 й.

6. Baltabaeva M.M. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining kishik biznes va tadbirkorlikni rivojlanishdagi ishtiroki. (1991-2019 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent 2020